



## SURXON VOHASINING TARIXIY TOPONIMIKASI VA GEOGRAFIYASIGA DOIR YOZMA VA MODDIY MANBALAR

**Norqobilov Sanjar Raxmat o'g'li**

*Termiz davlat Pedagogika institute Xorijiy til va adabiyoti fakultetining  
Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxon vohasining toponim va geografik manbalari tarixiy-xronologik izchillik, hududiy-muammoviy yondashuv asosida mavjud yozma, arxeologiya, etnografiya, tarixiy lingvistik, geografik ma'lumotlar asosida yoritishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Surxon vohasi, toponim, geografiya, Oks, Termiz ekspeditsiyasi.

### **KIRISH**

Bugungi kunda O'zbekiston tarixi fanida, toponimlar va tarixiy geografiya, uning tarixan shakllanishi va rivojlanishi masalalari tadqiq etila boshlandi. Biroq tarixiy davrlardagi rivojlanish tendensiyalarini O'zbekistonning alohida mintaqalari misolida o'rghanish muammosiga bir qadar kam e'tibor berilgan. Ayniqsa, O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Surxon vohasining I asrning ikkinchi yarmi –XIX asr boshlaridagi tarixiy-xronologik izchillik, hududiy-muammoviy yondashuv asosida ochib berish vatanimiz tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek:" Surxondaryo viloyati – o'zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o'rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega"<sup>60</sup>.

Surxon vohasining tarixiy toponim va geografiyasi bag'ishlangan tadqiqotlarni quyidagi uch tarixiy davrga ajratgan holda o'rghanish mumkin.

Birinchi, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yaratilgan Muhammad Yusuf Munshiy, Muhammad Amin Buxoriy, Abdurahmon Tole', Qozi Muhammad Vafo Karminagiy, Mirzo Abdulazim Somiy, Mirza Salimbek, D.N.Logofet, N.Maev, A.G.Ananev kabi mualliflarning asarlari.

Ikkinchi, sovet davriga mansub V.V.Bartold, A.A.Semenov, A.M.Aminov, M.Ye.Masson, A.X.Boboxo'jaev, H.Ziyoev, I.A.Remez, B.X.Karmisheva, B.Lunin, K.Shoniyozov, K.Z.Xakimova, L.N.Kraves, A.Abduraimov, V.S.Batrakov, K.Mirzaev singari olimlarning tadqiqotlaridir.

Uchinchi esa mustaqillik davrida H.Z.Ziyoev, G.A.Agzamova, A.X.Doniyorov, D.H.Ziyoeva, Q.K.Rajabov, A.A.Ashirov, Sh.H.Vohidov, N.Musaev, S.N.Tursunov, S.B.Shodmonova kabi tarixchilarning asarlaridir.<sup>61</sup>

<sup>60</sup>Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – B. 279.

<sup>61</sup>Qabulov Eshbolta Atamuratovich. XVIII asrning ikkinchi yarmi– XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi. Toshkent – 2019.





Arxeologiya va yozma manbalaridan ma'lumki, Vatanimiz shu jumladan, uning ajralmas tarkibiy qismi Surhon vohasi tarixi ming yilliklar tarixiga ega. Vatanimiz hududida qadimda mavjud bo'lgan o'lkalar yozma manbalarda miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid. Baqtriya, Xorazm va So'g'd o'lkalari nomlari 2500 yillik, Samarqand (Maroqand) atamasi esa 2750 yillik tarixga ega. Vatanimiz tarixi bilan bog'liq jarayonlar, shu jumladan joy nomlari bilan bog'liq atamalar qadimgi turkiy va sharqiyan eron tillari (Baqtriya, Xorazm, So'g'd)ga xosdir. Tarixiy toponimlarning bu xususiyati Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududda juda qadim zamonlardan turkiyzabon va forsiyzabon xalqlar istiqomat etib kelganligidan dalolat beradi. Toponimlarda asrlar osha xalqlar o'rtaida yuz bergen murakkab etnik va migrantsion jarayonlar, davlat va xalqlarning savdo va madaniy aloqalar tufayli o'zaro bir-biriga ta'siri o'z aksini topgan.

Shubhasiz bu jarayon Surxon vohasiga ham taalluqlidir. Surxon vohasining tarixiy toponimikasi va geografiyasini hanuzgacha alohida ilmiy yo'naliш sifatida qolmoqda.

## USULLAR

Ma'lumki Surxon vohasida dastlabki arxeologik-ekspeditsiyalar 1926-1928-yillarda Eski Termiz va Amudaryo bo'yli yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rgangan professor B.P.Denike boshchiligidagi Sharq xalqlari madaniyati muzeyining to'plamlarida ham voha tarixiy atamalari izohlab o'tilgan. Bular ekspeditsiya a'zosi A.S.Strelkov tomonidan buddaviylik inshooti Zurmolani Kattatepa deb va Qoratepa ibodatxonasining izohlaridir.<sup>62</sup>

Voha tarixiy joylarini shu jumladan Eski Termiz shahrining kelib chiqishi, Termizga asos solinishi, Termiz nomining etimologiyasini sharhlash va shu shaharning tarixiy geografiyasini anglashda 1936-1938-yillarda Eski Termiz yodgorliklarida tadqiqot ishlarini olib borgan professor M.Ye.Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining faoliyati juda muhim bo'ldi.

1936-1938-yillarda Eski Termiz yodgorligida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari "Труды Термезской археологической комплексной экспедиции" deb nomlanib, 1940-1945-yillarda ikki katta to'plamda nashr etilgan.

Professor M.Ye.Masson 1936-1938-yillarda faoliyat ko'rsatgan Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi faoliyati natijalariga asoslanib, Termiz shahri va nomining paydo bo'lishi, Termizning tarixiy topografiyasini haqida quyidagi xulosaga kelgan.

1. Oks (Amudaryo) bo'yida qad ko'targan Termiz shahriga miloddan avvalgi III asrda asos solingan.

2. Termiz shahrining asoschisi Yunon-Baqtriya shohi Demetriy hisoblanadi va o'z navbatida Termiz nomining kelib chiqishi ham bevosita Demetriy nomi bilan bog'liq. Demetriy-Demetriata-Darmita-Tarmita-Tarmit-Tarmid va h.k.

<sup>62</sup>Стрелков А.С. Зурмола или Ката-тюпе около Термеза. // Культура Востока. Сборник музея Восточных культур. Вып. 1, М., 1927, с. 27-30. Стрелков А. С. Доисламские памятники Древнего Термеза.// Культура Востока, Вып. 2, М., 1928, с. 41-47.





3. M.Ye.Masson tomonidan Eski Termizning ba'zi bir inshootlari va shuningdek tarixiy shaxslar bilan bog'liq yodgorliklarning o'rganilishi ham juda muhim bo'ldi.

Bu borada Eski Termizdagi Xoja Varroq mozorining qayd etilishi va al-Hakim at-Termizi maqbarasidagi tarixiy yozuvlarning o'rganilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. M.Ye.Masson boshchiligidagi guruh tomonidan Eski Termiz atrofida xususan Ayrитом (M.I.Vyazmitina tadqiqotlari)da, D.D.Bukinich boshchiligidagi guruhning sug'orish inshootlari bilan bog'liq tadqiqotlari davomida Talitog'ora kabi arxeologik joy nomlari izohiga e'tibor qaratildi.<sup>63</sup> Shuningdek Termiz arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan bu shaharning tarixiy tarhi (tuzilishi) ni yaratilishi ham juda muhim bo'ldi. Termiz shahri yozma va arxeologiya manbalarida tahlil etilib, vatanimiz hududidagi boshqa shaharlardan farqli "suradikat" qismga ham ega ekanligi isbotlandi. Eski Termizning 1936-1938-yillar davomida tuzilgan tarhidan qal'a, qo'rg'on yoki ko'shk, chor-sutun kabi atamalar muqim joy olib, hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Ikkinchи jaxon urushidan so'ng Surxon vohasi xududida uning tarixiy yodgorliklari tarixini o'rganish ishi bir qadar jadallahshdi. Bu borada arxeolog olim L.I.Albaumning xizmatlari juda muhim bo'ldi.

XX asrning 40-50 yillarda L.I.Albaum tomonidan Angor (L.I.Albaum tadqiqotlarida Anhor) yodgorliklari, shu jumladan Zartepa, Bolaliktepa, Qulog'litepa, O'rdalitepa, Yumaloqtepa kabi arxeologik obidalar o'rganildi. Bu yodgorliklar nomlari L.I.Albaum tomonidan 1960-yilda nashr etilgan "Балалық-тепе" asarida keng sharhlangan, bu joy nomlari va yodgorliklar ta'rifi ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham e'lon qilingan asarlardan o'rinn olgan.<sup>64</sup> L.I.Albaumning "Балалық-тепе" asarini voha toponimlarini o'rganish borasidagi muhim hususiyatlaridan yana biri bu asarda muallif tomonidan Quyi Surxon vohasining arxeologik yodgorliklari xaritasi ham e'lon qilingan.

L.I.Albaum tomonidan tuzilgan bu xarita hozirda Quyi Surxon vohasining arxeologik va ular joylashgan hududning asl nomini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu xaritadan Surxondaryoning chap qirg'og'i bo'ylab quyidagi tarixiy arxeologik va me'moriy ob'ektlar joy olgan. Jarqo'rg'on hududidan Surxondaryoning Amudaryoga qadar quyilish joyida: Yertepa, G'ulg'ul (shahri G'ulg'ula), O'rtaxona, Oqtepa, Cholbilgin, Bobomurg', Choldevor, Qo'chqor og'zi, To'rtovuz gumbaz, Jeltegirmon, Momoxol masjid, O'yiq gumbaz, Saroy, Besh gumbaz, Sobir yog'och. Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida Jarqo'rg'onidan Pattakesar qishlog'iga qadar: Bir ovuz, Xo'ja Kamar, Tolitog'ora, Salavot, Manguzar, Ro'jnoi, Nog'oratepa qayd qilingan.

<sup>63</sup>Массон М.Е.Городища Старого Термеза и их изучение.// Труды узбекистанского филиала Академии наук СССР. Сер. 1. История и археология. Вып. 2. Термезская археологическая комплексная экспедиция 1937 г. Ташкент., 1940-1941, с. 5-122. Вязьмитина М.И.Раскопки на городище Айртам// Труды Академии наук СССР. Сер. 1. История и археология. Термезская археологическая экспедиция. Том 2, Ташкент, 1945, с. 23-24.

<sup>64</sup>Альбаум Л.И.Некоторые данные по изучению Анхорской группы археологических памятников (1948-1949 гг.)// Труды Института Истории археологии АН Уз ССР, Т. VIII, Ташкент. 1955. Альбаум Л. И. Балалық – тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. Ташкент, Издательство Академии Наук. Ташкент, 1960.





Termizdan Angorgacha Chingiztepa, Qoratepa, Kaftarxona, Yakkakofir xarobalari, Maymun to'qay, Zartepa, Muqli Tazor xarobalari, Zarmulla, Bertaliktepa, Xo'ja Ro'shnoyi, Bolaliktepa, Qizqum, Obidobodtepa, Yumaloqtepa, Xayrabodtepa, Teshiktepa, Tazortepa, O'rdalitepa kabi tarixiy arxeologik va me'moriy yodgorliklar, Xayrabod, Obidobod kabi qadimgi kanallar joylashgan.<sup>65</sup>

1959-yildan boshlab Surxon vohasida San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining professor (keyinchalik O'zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, akademik) G.A.Pugachenkova boshchiligidagi O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi xodimlari keng ko'lamma arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirishga kirishdilar.

1959-1960-yillarda Xolchayonda jahonshumul ahamiyatga molik tadqiqotlar bilan bir qatorda Chag'oniyonning (arab manbalarida Sag'oniyon) tarixiy topografiyasi va joy nomlarini o'rganishda ham juda ko'p ilmiy tadqiqotlar e'lon qilindi. Ta'kidlash joizki, Chag'oniyonning tarixiy topografiyasi va joy nomlarini o'rganishda G.A.Pugachenkova tomonidan 1960-yillarda chop etilgan quyidagi asar va maqola juda muhimdir. 1963-yilda G.A.Pugachenkova "Chag'oniyonning tarixiy topografiyasiga" doir maqola va 1966-yilda "Xolchayon. Shimoliy Baqtriya badiiy san'ati masalalariga doir" deb nomlangan yirik asarini nashr etdi. Bu maqola va asarda G.A.Pugachenkova tomonidan Chag'oniyon (Sag'oniyon) atamasining kelib chiqishi, bu o'lka shaharlarining har bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan yodgorligi, Xolchayon atamasining izohi, Dalvarzintepa etimologiyasi kabi muammolar ma'lum darajada o'z echimini topdi.

1955-1956-yillarda Eski Termizdagi al-Hakim at-Termiziyy maqbarasida professor M.Ye.Masson bu maqbarani ta'mirlash munosabati bilan obida ichki qismidagi tarixiy yozuvlarni o'rgandi. Maqbara masjid va go'rxona qismlarida saqlanib qolgan nasx va kufiy uslubida bitilgan tarixiy yozuvlar M.Ye.Masson tomonidan "Hakimi Termiziyy me'moriy inshootining o'yma naqshlaridagi yozuvlar" sarlavhasi ostida e'lon qilingan maqolasida bayon etilgan va Termizning 11-12-asrlar tarixiy shaxslari va joylarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.<sup>66</sup>

1957-yilda A.M.Mandelshtamning "Pomir va Pomir bo'yi viloyatlarining qadimgi davrlardan X asrga qadar tarixiy geografiyasiga oid materiallar" nomidagi asari nashr yuzini ko'rди. Milodiy 383-yildan e'tiboran Tohariston (Tohariston hududiga Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati kirgan) deb yuritila boshlagan bu o'lkasing muhim tarkibiy qismi Surxon vohasi hisoblangan. Tohariston, shu jumladan Surxon vohasi V-VIII asrlarda mayda mulkliklarga bo'lingan. Tohariston o'lkasi ilk o'rta asrlarda rasman davlat hisoblansada, amalda 27 ta mulklikka bo'linib

<sup>65</sup>Альбаум Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства Северного Тохаристана. Ташкент, Издательство Академии Наук. Ташкент, 1960. Рис 2. Карта схема археологических памятников южной части Сурхандарьинской области.

<sup>66</sup>Массон М.Е. Надписи на штуке из архитектурного ансамбля у мавзолея Хаким-и Термизи. // Труды Ташкентского Государственного университета. Новая серия. Выпуск 172. исторические науки, книга 37. археология Средней Азии. V, Ташкент, 1960, с. 44-80.





ketgan. Bu mulkliklardan bir nechiasi shu jumladan Termizshohlar (xitoy manbalarida Ta-mi), Chag'oniyon (Chi-go-yan-na) bevosita Surxon vohasida mavjud bo'lgan.

A.M.Mandelshtamnng ushbu asarida Ta-mi va Chi-go-yan-na mulkliklarining joylashgan hududi, bu tarixiy o'lkkalar egallab turgan kengliklar xitoy manbalari asosida ta'rifi keltirilgan.<sup>67</sup>

1960-yildan B.Ya.Staviskiy rahbarligidagi Moskvadagi Sharq muzeyi, Sharqshunoslik instituti va Leningraddagi Davlat Ermitajining birlashgan ekspeditsiyasi Eski Termizdagi arxeologik obidalardan biri buddaviylik ibodatxonalarini majmui bo'lmish Qoratepada keng ko'lamda arxeologik tadqiqot ishlarini amalgaloshirishga kirishdilar. Tadqiqotlar tufayli Qoratepa ibodatxona majmuining "Janubiy qismi"da bir qancha arning ustki va ostki qismlarida bunyod etilgan inshootlar ochildi va buddaviylik bilan bog'liq ko'plab ashyoviy manbalar, ayniqsa qadimgi yozuv namunalari to'plandi. Garchand ekspeditsiya a'zolari tomonidan Qoratepa atamasi "uzoqdan bu joy undagi mavjud g'orlar tufayli qorayib turgani uchun Qoratepa deb atalgan" kabi oddiy izohlansada, bu joydan topilgan qadimgi yozuvlarni ushbu ibodatxonaning qadimgi nomini aniqlashdagi ahamiyati g'oyatda cheksizdir. Qoratepadan topilgan qadimgi yozuv na'munalari 6 ta maxsus to'plamlarda,<sup>68</sup> B.Ya.Staviskiyning "O'rta Osiyoda buddaviylik diniing taqdiri"<sup>69</sup> va V.V.Vertogradovanining "Eski Termizning Qoratepa yodgorligidagi hind epigrafikasi"<sup>70</sup> kabi asarlarda o'z sharhini topgan. V.V.Vertogradovanining ta'kidlashicha, Qoratepa o'rnidagi ibodatxona Kushon podsholigi davrida (miloddan avvalgi I milodiy III asrlar) "Kanishka ibodatxonasi" deb nomlangan. Qoratepadan topilgan yozuvlarning birida esa "Antioxiya Tarmitasi" atamasi ya'ni Termizning qadimgi nomlaridan biri o'qilgan. Ta'kidlash joizki, XX asrning 50-60-yillarida ingliz olimi V.Tarn va hind A.Narayn tomonidan nashr etilgan asarlarda ham Surxon vohasining markaziy shahri Termiz Oks bo'yidagi Iskandariya deb tahlilga jalb etilgan.

1973-yilda A.M.Beleniskiy, I.B.Bentovich, O. G. Bolshakovlarning Leningradda "O'rta Osiyoning o'rta asrlar shaharlari" asari nashr etildi. O.G.Bolshakov tomonidan bu asarda Surxon vohasining quyidagi tarixiy shahar va qishloqlari nomlari, arab-fors manbalarida bu markazlar haqida mavjud ma'lumotlar jamlangan. O.G.Bolshakov tuzgan xaritada Surxon vohasida IX-XIII asr boshlarida quyidagi markazlar mavjud

<sup>67</sup> Мандельштам А.М.Материалы к историко-географическому обзору Памира и припамирских областей с древнейших времен до 10 в. н.э.Сталиабад, 1957.

<sup>68</sup> Кара-тепе-буддийский пещерный монастырь в Старом Термезе. М., Наука, 1964; (Кара-тепе 2) Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., Наука, 1969; (Кара-тепе 3) Буддийский культовый центр в Старом Термезе. М., Наука, 1972; (Кара-тепе 4) Новые находки Кара-тепе в Старом Термезе. М., наука, 1975; (Кара-тепе 5) Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. М., Наука, 1982; (Кара-тепе 6) Буддийские комплексы Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1996.

<sup>69</sup> Ставиский Б.Я. Судьбы буддизма в Средней Азии (по данным археологии). М., Наука, 1998. с. 23-24.

<sup>70</sup> Вертоградова В. В. Индийская эпиграфика из Кара-тепе в Старом Термезе. Проблемы дешифровки и интерпретации. М., Наука, 1995.





bo'lgan. Janubdan-shimolga: Termiz, Sarmangan, Hoshimgird, Darzangi, Rikdasht, Bosand, Burob, Chag'oniyon, Sangardak.<sup>71</sup>

Qadimda Baqtriya-Tohariston o'lkasining tarkibiy qismi Surxon<sup>72</sup>vohasi tarixiy joylarini o'rganish ishiga muhim hissa qo'shgan tarixchi-arxeolog va numizmat olimlardan biri O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi E.V.Rtveladze hisoblanadi. Ayniqsa olimningning Termiz-Chag'oniyon savdo yo'lidagi shaharlar joylashuvi (lokalizatsiyasi)ga bag'ishlangan maqolalari juda muhimdir. Ayniqsa, 1985-yilda Oqqo'tol dovonida Darbandga yaqin joyda Darband mudofaa istehkomining kashf etilishi "Temir darvoza va Dari Ohanin" muammolarini va ular joylashgan hudud masalalarini uzil-kesil hal etdi.<sup>73</sup>

G.A.Pugachenkova va E.V.Rtveladze hamkorlikda yozgan "Shimoliy Baqtriya-Tohariston. Qadimgi va o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatidan ocherklar" asarida Surxon vohasining o'rta asrlar davri tarixiy joylari haqida e'tiborga loyiq ma'lumotlar jamlangan.<sup>74</sup>

## NATIJALAR

Surxon vohasi (o'rta asrlarda Shimoli-g'arbiy Tohariston)ning tarixiy toponimlarini yozma manbalarsiz tasavvur qilish qiyin. Vohaning shaharlari va boshqa turdag'i tarixiy joylarini yozma manbalarni, arxeologik ma'lumotlar bilan chuqur qiyoslab keng tahlil etgan sharqshunos olim Sh.S.Kamoliddinov hisoblanadi. Sh.S.Kamoliddinov "Sam'oniy va uning Termiz haqidagi ma'lumotlari"<sup>75</sup>, Abu Saad Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning "Kitob al-ansab" O'rta Osiyoning tarixi va madaniyati haqida manba"<sup>76</sup>, "Janubiy So'g'd va Shimoliy Toharistonning tarixiy geografiyasi arabonafis mualliflar ma'lumotlari asosida"<sup>77</sup> kabi maqola va asarlarida Shimoliy-g'arbiy Baqtriya Tohariston (Surxon vohasi)ning tarixiy toponimlari, ularning etimologiyasi to'g'risida asosli fikrlar bayon etilgan.

Sh.S.Kamoliddinov 1113-1167-yillarda yashab faoliyat ko'rsatgan as-Sam'oniy asarining jaxon kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma nuxxalarini taqqoslab Termiz va uning atrofida mavjud bo'lgan Botikar (Botakar), Ruxshabuz (Ruxshayuz), Sarmangan, Charmangan (Jarminkon) kabi qishloq va shaharchalar, Termiz nomining shaharliklar tomonidan "Tarmiz" (ba'zida Turmuz) shakllarida talaffuz etilishi kabi muhim ma'lumotlarni keltirgan.

<sup>71</sup>Беленицкий А.М, Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., Наука, 1973, с. 177-181.

<sup>72</sup>Ртвеладзе Э.В. К истории Северного Тохаристана в IX-начале XIII вв // Краеведение Сурхандарьи. Т., Узбекистан, 1989, с. 93 – 112.

<sup>73</sup>Ртвеладзе Э.В. Стена Дарбанда Бактрийского// Общественные науки в Узбекистане. 1986, №12

<sup>74</sup>Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Т., Фан, 1990, с. 166-170.

<sup>75</sup>Камалиддинов Ш.С.Самъани и его сведения о Термезе// краеведение Сурхандарьи. Т., Узбекистан, 1989, с 113-116.

<sup>76</sup>Камалиддинов Ш.С.Китаб ал-ансаб Абу Саъда Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Саъмани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Т., Фан, 1993, с. 54-58.

<sup>77</sup>Камалиддинов Ш.С.Истрическая география южного Согда северного Тохаристана по арабоязычным источникам. Т., Узбекистан. 1998. с.





"Janubiy So'g'd va Shimoliy Toharistonning tarixiy geografiyasi" asarida esa Toharistonning Surxon vohasidagi qismidagi tarixiy joylarning barcha arab manbalaridagi asl ko'rinishda keltirilganligi barcha tahsinga loyiq.


### MUNOZARA

Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi mavjud yozma, arxeologiya, etnografiya, tarixiy lingvistik, geografik ma'lumotlar asosida Surxon vohasining tarixiy toponimikasi va geografiyasini yoritishdan iborat. Shuningdek quyidagi masalalarni ilmiy asosda sharhlash va yoritish asosiy vazifasi hisoblanadi.

- Surxon vohasida ilk bora shakllangan shahar, qal'a, qishloqlar va boshqa turdag'i aholi manzillarining davriy sanasi, joy nomlarining etimologiyasi va ular egallagan geografik hudud ta'rifi;
- Surxon vohasining Yunon-Baqtriya (miloddan avvalgi III-II asrlar) va Kushon podsholigi (miloddan avvalgi I- milodiy III asrlar) davri aholi manzillari va ular nomlari;
- Surxon vohasi (o'rta asrlarda Termiz va Chag'oniyon) ning IX-XIII asrlar boshlari iqtisodiy, siyosiy, savdo va madaniy markazlari va ular nomining etimologiyasi;
- Surxon vohasining Kushon podsholigi davrida Buyuk ipak yo'li ("Janubiy tarmog'i") bo'ylab mavjud bo'lgan shahar va qal'alari, Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan olib borilgan savdo va madaniy aloqalar, ularning joy nomlarida aks etishi;
- Surxon vohasida miloddan avvalgi II asrdan tortib XVI asr oxiriga qadar yuz bergen migrantsion jarayonlarning joy nomlarida aks etishini yozma, arxeologiya va tarixiy lingvistik manbalar asosida o'rganishlar kiradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – B. 279.
2. Qabulov Eshbolta Atamuratovich. XVIII asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi. Toshkent – 2019.
3. Стрелков А.С. Зурмола или Ката-тюпе около Термеза. // Культура Востока. Сборник музея Восточных культур. Вып. 1, М., 1927, с. 27-30. Стрелков А. С. Доисламские памятники Древнего Термеза.// Культура Востока, Вып. 2, М., 1928, с. 41-47.
4. Массон М.Е.Городища Старого Термеза и их изучение.// Труды узбекистанского филиала Академии наук СССР. Сер. 1. История и археология. Вып. 2. Термезская археологическая комплексная экспедиция 1937 г. Ташкент., 1940-1941, с. 5-122. Вязьмитина М.И.Раскопки на городище Айртам// Труды Академии наук СССР. Сер. 1. История и археология. Термезская археологическая экспедиция. Том 2, Ташкент, 1945, с. 23-24.





5. Альбаум Л.И.Некоторые данные по изучению Анхорской группы археологических памятников (1948-1949 гг.)// Труды Института Истории археологии АН Уз ССР, Т. VIII, Ташкент. 1955. Альбаум Л. И. Балалық – тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. Ташкент, Издательство Академии Наук. Ташкент, 1960.

6. Альбаум Л.И. Балалық-тепе. К истории материальной культуры и искусства Северного Тохаристана. Ташкент, Издательство Академии Наук. Ташкент, 1960. Рис 2. Карта схема археологических памятников южной части Сурхандарьинской области.

7. Массон М.Е. Надписи на штуке из архитектурного ансамбля у мавзолея Хаким-и Термизи. // Труды Ташкентского Государственного университета. Новая серия. Выпуск 172. исторические науки, книга 37. археология Средней Азии. V, Ташкент, 1960, с. 44-80.

8. Мандельштам А.М.Материалы к историко-географическому обзору Памира и припамирских областей с древнейших времен до 10 в. н.э.Стилиабад, 1957.

9. Кара-тепе-буддийский пещерный монастырь в Старом Термезе. М., Наука, 1964; (Кара-тепе 2) Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. М., Наука, 1969; (Кара-тепе 3) Буддийский культовый центр в Старом Термезе. М., Наука, 1972; (Кара-тепе 4) Новые находки Кара-тепе в Старом Термезе. М., наука, 1975; (Кара-тепе 5) Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. М., Наука, 1982; (Кара-тепе 6) Буддийские комплексы Кара-тепе в Старом Термезе. М., 1996.

10. Ставиский Б. Я. Судьбы буддизма в Средней Азии (по данным археологии). М., Наука, 1998. с. 23-24.

11. Вертоградова В. В. Индийская эпиграфика из Кара-тепе в Старом Термезе. Проблемы дешифровки и интерпретации. М., Наука, 1995.

12. Беленицкий А.М, Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., Наука, 1973, с. 177-181.

13. Ртвеладзе Э.В. К истории Северного Тохаристана в IX –начале XIII вв // Краеведение Сурхандаръи. Т., Узбекистан, 1989, с. 93 – 112.

14. Ртвеладзе Э.В. Стена Дарбанда Бактрийского// Общественные науки в Узбекистане. 1986, №12

15. Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Т., Фан, 1990, с. 166-170.

16. Камалиддинов Ш.С.Самъани и его сведения о Термезе// краеведение Сурхандаръи. Т., Узбекистан, 1989, с 113-116.

17. Камалиддинов Ш.С.Китаб ал-ансаб Абу Саъда Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Саъмани как источник по истории и истории культур Қ Средней Азии. Т., Фан, 1993, с. 54-58.





18. Камалиддинов Ш.С.Истрическая география южного Согда северного Тохаристана по арабоязычным источникам. Т., Узбекистан. 1998. с.
19. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
20. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. Uzbek Scholar Journal, 4, 53-55.
21. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.
22. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 2, 25-28.
23. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In Conference Zone (pp. 132-133).
24. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In Conference Zone (pp. 132-133).
25. Усмонова, Ш. (2021). МЕДИАДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИК ТЕНДЕНЦИЯСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
26. Усмонова, Ш. (2021). МЕДИАДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИК ТЕНДЕНЦИЯСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
27. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In Conference Zone (pp. 132-133).
28. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In Conference Zone (pp. 132-133).
29. Urinova, F. A., & Usmonova, S. Y. Q. (2019). IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARAKTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 317-322.
30. Urinova, F. A., & Usmonova, S. Y. Q. (2019). IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARAKTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 317-322.
31. Уринова, Ф. У., & Эркинова, Ш. Ё. (2013). Значение инновационной индивидуальной работы в повышении эффективности самостоятельной учебной деятельности студентов. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12-2), 293-295.
32. Уринова, Ф. У., & Эркинова, Ш. Ё. (2013). Значение инновационной индивидуальной работы в повышении эффективности самостоятельной учебной

